Ota-onalar uchun

Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz, pedagogikani o‘rganing

Ushbu maqolani yozishdan alloma, olimlarning bola tarbiyasiga oid tavsiyalari, fikrlarini ota-onalarimiz bilan bo‘lishish maqsad qilindi. Hozir Respublikamizdagi mavjud 10130 ta umumta’lim maktablarda yangi 2022-2023-o‘quv yili ham boshlandi. Bolalarimiz hayotda o‘z o‘rnini topishida ularning zamonaviy kompetensiyalarni puxta egallashlari o‘ta muhim. Bunda allomalarimiz aytganlaridek, tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu paytgacha hech kim yaxshi tarbiyalangan bolaning yomon o‘qiganini ko‘rmagan. Shu bois hayotiy misollar, kuzatishlar orqali ota-onalarimizning e’tiborini farzand tarbiyasining ilmiy tavsiyalariga qaratishni istadik. Ota-ona shifokor tavsiyalariga amal qilmasa, bolaning sog‘lig‘i mustahkam, kuchli, chidamli bo‘lmaydi. Shuningdek, pedagogik tavsiyalarga amal qilinmasa, bolada hayotiy fazilatlar tanqisligi ota-onaning bir umr afsuslanishiga sabab bo‘lishini uqtirib berishga harakat qilindi. Zero, jamiyatning pedagogik madaniyati qancha yuksalsa, farzandlarimiz tarbiyasi shuncha mukammal bo‘ladi.

Pedagogik bilimsizlik – tahdid

Tansihatlik bo‘yicha bilimsizlik – salomatlikka tahdid. Bu Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining standartiga kiritilgan. Demak, ota-onalarning va bolalarining kasal bo‘lishlariga asosiy sabablardan biri, ota-onalarda tibbiy bilimlarning yetishmasligi ekan. Har bir ota-ona o‘zim, bolalarim sog‘ bo‘lishsin desa, tibbiy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Kim boy bo‘lay desa, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lsin. Bolam baxtli bo‘lsin desa, pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

To‘ng‘ich bolasi tug‘ilgan kundan boshlab kechagi kelin-kuyov, bir kunda ota-onaga aylanishadi. Shunday ekan, ota-onalikka tarbiya sirlarini bilib kirishgan yaxshimi yoki bilmay? Albatta, bilib kirishish kerak. Chunki hozirgi murakkab va tahlikali zamonda bu hal qiluvchi masala bo‘lib qoldi.

Shunday ekan, har bir kelin-kuyov iftixor bilan: “Birinchi farzandim tug‘ilgan kun – mening birinchi pedagogik ish kunim” deyishga tayyor turishlari kerak.

Tarbiya bu har birimizning konstitutsion burchimiz. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, degan majburiyatimiz mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar.

E’tibor beryapsizmi, “ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”, deyilmoqda. Bu yerda ikkita majburiyat bor. Biri – boqish, ikkinchisi – tarbiyalash. Bizda ikkinchi majburiyat – tarbiyaviy majburiyatni ta’minlashda ota-onalarimiz muammoga duch kelmoqda. Ya’ni pullari yetarli, biroq, bolani qanday tarbiyalash kerak, degan savolning javobiga bilimlari yetmaydi. Ularga faqat bir fan najot bera oladi. Bu fanning nomi – pedagogika.

Pedagogika qanday fan?

Tarbiya to‘g‘risidagi yagona fan. Odamni INSONga aylantirish ilmi.

Pedagogika eng qadimiy fan. U yer yuzida birinchi chaqaloq tug‘ilib, “ingaaa”, deb yig‘laganida tug‘ilgan. Yer yuzidagi birinchi chaqaloq bilan birga tug‘ilgan. Bolalar bor ekan, pedagogika ham bor.

Pedagogika juda qiziq fan. Bola ma’naviyati bir serhosil tuproq. Unga nima ekilsa, o‘sib chiqadi, hosil beradi. Qancha erta ekilsa, shuncha erta hosilga kiradi. Gul ham, anjir ham. Afsuski, siz ekmagan, tashqaridan shamol olib kirgan urug‘lar, ajriq, g‘umay ham o‘sib chiqadi.

Tarbiyaning eng yaxshi metodi nima?

Bu – o‘rgatish metodi. Chunki uning ichida tushuntirish ham bor, suhbat ham bor, ko‘rsatish ham, aytish ham, namuna ham bor. Bu metodning qadr-qimmatiga ikki misol keltiramiz. Birinchisi, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) aytadilar: “Albatta, kishining farzandiga odob o‘rgatmog‘i (ta’kid bizniki.(M.Q., J.F.) bir o‘lcham narsani sadaqa qilmog‘idan ko‘ra yaxshiroqdir”.

Tarbiya xuddi biznes, meditsina, quruvchilik kabi aniq natijaga qaratilgan amaliy ish. Ba’zilar tarbiya haqida “bolani yoniga o‘tqazib, ibratli nasihat qilish”, deyishadi. Bu ham foydali, lekin tarbiyaning o‘zi emas. Bu bemorni davolash o‘rniga unga sog‘liqni saqlash yo‘llarini yaxshilab tushuntirishga o‘xshaydi. Tushuntirish nazariy tushuncha beradi. Tarbiyaning natijasi bilim emas, fazilat. Bolada biror fazilatni ko‘rishni istasak, dastlab unga shu fazilatning eng mukammal tarzini ko‘rsatib, o‘rgatib, mashq qildirib, takrorlatib, odatga aylantirib yuborish kerak bo‘ladi.

Fazilat nima?

Fazilat bu – insondagi u yoki bu ijobiy xislat, sifatning nomi. Fozillik, afzallik, degani. E’tibor berganmisiz, Abu Nasr Forobiy bobomiz o‘zining buyuk asariga “Fozil odamlar shahri” deb nom bergan. Bu – fazilatli odamlar, ya’ni – fozillar(afzal odamlar) yashaydigan joy, yaxshi tarbiyalangan, yuksak ma’naviyatli odamlar istiqomat qiladigan shahar, degani.

Ota-ona bolasiga ism tanlayotganida o‘zining orzulariga eng mosini tanlaydi. Agar tahlil qilinsa, har bir o‘zbekcha ism – bir fazilat ekanligi ma’lum bo‘ladi. *Misol uchun, Olim, Odil, Omil, Afzal, Fazilat, Fozil degan o‘zbek ismlarini olaylik. Olim – bilimli, Omil – bilimiga amal qiluvchi, Fozil – fazilatli odam, degani.*

Mehribonlik, jasurlik, vatanparvarlik, daxldorlik va boshqalar inson fazilatlari. Ular odamlarning turli vaziyatlarda qilgan xatti-harakatlarida ko‘rinadi, aytgan gaplarida eshitiladi, seziladi. Demak, tarbiya odamlarning fazilatlarini va fazilatlar zanjiri xulqni yaratadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hazrat Alisher Navoiy bobomiz

Aql ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila odam elini shod qil,
degan.

Xalqimizda bir mashhur pedagogik maqol bor: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Nega shunday deyishadi? Bizdan bir kishi “Iltimos, o‘zingiz ko‘rmagan xatti-harakatni bajarib ko‘rsating” desa, nima qilamiz? “Bu nima deganingiz”, deymiz taajjub bilan. Hech narsani ko‘rsata olmaymiz. Chunki ko‘rmagan narsani qilib, ko‘rsatib bo‘lmaydi. Chunki biz bu harakatni ko‘rmaganmiz. Bola ham, qush ham shunday. Uyasida yoki boshqa joyda ko‘rgan narsasini “skaner” qiladi. Ko‘rmagan narsasini qilmaydi. Qilolmaydi.

Fazilat bolalarga qanday singadi?

Qayta-qayta ko‘rish, eshitish orqali singadi. Bola kimda, qaysi xatti-harakatlarni ko‘p ko‘rgan va takrorlagan bo‘lsa, ana shu xatti-harakatlar uning xulqida chuqur iz qoldiradi. Uning xatti-harakatlarida “yuzaga qaytib chiqadi”.

Misol uchun, 15 yoshli bola ota-onasini 38-325 kun davomida ko‘radi. Har kuni u otasining choyni qanday ichishini, telefonda qanday gaplashishini, gavdasini qanday tutib yurishini, choy quyayotganini, kulayotganini, asabiylashayotganini, ota-onasiga mehribonlik(yoki aksincha, qo‘pollik) qilayotganini, yuzini yuvayotganini ko‘radi. Ota-ona bolalari ularni kuzatayotganini sezishmaydi ham.

Har kuni ota-ona uyda ish, yumush, muomalaga oid yuzlab xatti-harakatlarni bajarishadi. Bolalari diqqat bilan qarab turganini sezishmaydi ham. Shunday ekan, ota-onalarga bir tavsiyamiz bor: bolangiz sizning yoshingizga yetganida qanday odam bo‘lishini istasangiz o‘zingiz hozir shunday (yaxshi) odam bo‘ling.

Tarbiya – uzluksiz jarayon. U bola ertalab uyg‘onganidan to uxlagunga qadar to‘xtamaydi, davom etadi. Chunki bola har minutda nimalarnidir, kimlarnidir ko‘rayapti.

Tarbiyaning ikki ravishi bor. Biri – maktabda, pedagoglar olib boradigan aniq maqsadli, rejali, aniq pedagogik natijaga erishishga qaratilgan ish. Ikkinchi ravishi bu – hayot tarbiyasi. Masalan, bolangiz uydan maktabga 30 minutlik yo‘l bosib boradi. Qaytishda ham shunday. Demak, u har kuni 60 minut davomida notanish odamlarni, vaziyat va manzaralarni ko‘radi. Har xil yaxshi-yomon voqealar, fikrlar, gaplar, namunalar ta’siriga duch keladi. Qaytishida ham. Ertaga ertalab maktabga kelayotib bolamiz kimlarni, nimalarni ko‘rishini hech qaysimiz bilmaymiz. Demak, har kuni bolamizni 60 minutlik tashkil etilmagan, stixiyali tarbiya jarayoni kutib turadi.

Bolamiz turli yoshdagi odamlarning qanday kiyinganliklarini, bir-birlariga muomalalarini, to‘g‘ri-noto‘g‘ri qiliqlarini ko‘radi. Qayd qiladi. Shuning uchun biz kattalar ko‘cha-ko‘yda, to‘y-ma’rakada, transportda ketayotganimizda ana shu nozik jarayonni doim his qilib turishimiz kerak. Bolalar, yoshlar mendan ibrat olishyapti. Men hozir menga ko‘zi tushayotgan barcha – mahalla, qishloq, ko‘chadagi barcha tanish-notanish bolalarga ibrat bo‘layapman, degan mas’uliyat doim yodimizda turishi kerak.

Majlisga otalar kelsin

Maktabdagi ota-onalar majlislariga asosan onalar kelishadi. Otalar ko‘pincha kelishmaydi. Bunga barham berish uchun ish usullarini o‘zgartirish kerak. Ya’ni ikki usulda: birinchi, “majlisga kelayotgan otalar” va ikkinchi, “majlisga kelmayotgan otalar” bilan ishlash usullarini ishga solish kerak.

Majlisga kelmayotgan otalar bilan ro‘yxat asosida, yakka ishlash kerak. Har bir otaning qo‘l telefoni bor. Qo‘ng‘iroq qilib, xushmuomalalik bilan farzandi tarbiyasida hamkorlikka chorlash kerak. SMS orqali ularga farzand tarbiyasi haqidagi aforizmlar, uning o‘g‘li-qizi haqida qiziq, yaxshi ma’lumotlar, yangiliklar, muammolarni yuborib tursa bo‘ladi. Gap o‘z bolasi haqida ketayotganini bilgan ota bir qaramas, ikki qaramas, keyin, albatta, ta’sirlanadi. Ochib o‘qiydi.

Aksariyat otalar birdaniga ochib o‘qib, ta’sirlanib, qiziqib ketadi. Qolgan 10–15 foiz otalarni “faollashtirib olish” uchun biroz ko‘proq vaqt talab etiladi. Ularga onalar orqali – bilvosita ta’sirni yanada kuchaytirish kerak. Kerak bo‘lsa, ma’rifiy usullar ish bermasa, yuqorida aytganimiz – huquqiy-me’yoriy asoslarni ishga solsa bo‘ladi.

Otalarning maktabga kam kelishi, albatta, yomon. Lekin onalarning ko‘p kelishlari – juda ajoyib imkoniyat. Chunki onalarda tarbiya ishi uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p afzalliklar bor.

Uyda bola bilan kim ko‘p vaqt birga bo‘ladi, gaplashadi? Otami, onami? Albatta, ona. Tarbiya uchun kim jonkuyar? Onalar. Kim e’tiborliroq? Onalar. Bola tarbiyasi uchun otaning vaqti kam bo‘lsa, onaning vaqti ham, imkoniyati ham ko‘p. Demak, onalarni pedagogik bilim va mahorat bilan qurollantirish kerak. Buning uchun esa maktab, kollejlarda ota-onalar majlislariga asosan onalar kelayotganidan unumli foydalanish lozim. Chunki onalar orqali oilalarga pedagogik bilimlarni olib kirish, joriy qilish tez va soz kechadi.

Onalar, kerak bo‘lsa, otalarni ham ishga solib yuborishadi(afsuki, bu imkoniyatdan ba’zi opaxonlarimiz to‘ylarini dabdabali qilishdagina foydalanishyapti, xolos). Bundan mahalla, oila, ta’lim muassasasining pedagogik hamkorligi samarasi yanada oshadi. Bolalarimizni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish maqsadida ijtimoiy hamkorlikda o‘tkazayotgan “O‘quvchi”, “O‘smir”, “Davomat”, “Oyna” kabi profilaktik tadbirlarga zarurat qolmaydi.

Internet

Bugun internetning ta’siri bolaga oila, ta’lim muassasasi va mahalla ko‘rsatayotgan tarbiyaviy ta’sirdan kam emas. Yana orta boradi. Bolalarimiz onalari bergan pullarga soatlab vaqtlarini qo‘shib, internetga sarf qilishayotir. Bu tushlikda somsa uchun berilgan pulga sigaret olib chekishga o‘xshaydi.

O‘ylab ko‘rganmisiz? Nima uchun real hayotda bolalarimiz sigaret chekishmaydi? Chunki ularda sigareta chekishga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirib qo‘yganmiz. Virtual hayotda negadir bunday bo‘lmayapti. Bu esa ayrimlarda internet fobiyani paydo qilmoqda. Ular “bolalarimizni internetdan himoya qilishimiz kerak. Internet bolalarimizni buzyapti”, deyishadi. Aslida esa “Biz o‘zimiz internetdan qanday foydalanishni o‘rganmadik. Bolalarimizga o‘rgatmadik. Qanday nazorat qilishni bilmayapmiz. Shuning uchun biz berayotgan pul bolalarimizga foyda o‘rniga zarar yetkazyapti”, deyilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki internetdagi yaxshi resurslarni qo‘yib, yomonlaridan foydalansa, shunday bo‘ladi-da.

Internet – umuminsoniy trendda. Shunday bo‘lib qoladi. Internet – bozor. Uni tanqid qilish befoyda ish. Undan ko‘ra bolamizga bu bozordan nimani, qanday olishni o‘rgataylik. Avval o‘zimizni, keyin bolalarimizni mediamadaniyat bilan qurollantiraylik. Ana shunda internet bizni emas, biz internetni yutamiz. Kam pul sarflab, internetdan katta-katta foyda olib, mamnun yashaymiz. Ko‘pchilik ota-onalar buni allaqachon o‘rganib olishgan.

Hozir har bir bola uchun kurash ketyapti. Bir tomonda internet, ikkinchi tomonda oila turibdi. Kim bolaning ko‘zlariga ko‘proq ko‘rinsa, qiziqarliroq narsalarni taklif qilsa, bolaning o‘y-xayollarini egallasa, bola o‘shaniki!

Ba’zi loqayd otalar bolasi yoniga suykalib kelsa, “Bor-bor. Ishim ko‘p. Ma, 5000 ni ol, o‘ynab kel. Faqat ko‘chaga chiqma, mashina ko‘p”, deb o‘z halovatiga o‘ylashadi. Bolasi o‘zidan qiziq voqealarni so‘rashini, gaplashishini, qiziqishini, bolasiga vaqt sarflashni xohlashmaydi.

Internet esa loqayd ota-ona qilayotgan ishning teskarisini qilyapti. U bolalarimizning internetga kirishini poylab turibdi. Undan qiziq voqealarni so‘rashini, gaplashishini, qiziqishini kutyapti.

Mana, bir ota “Meni tinch qo‘y”, deb ikki soat o‘zi bilan o‘zi qolish uchun bolasiga 5 ming so‘m berdi. Internet tezda bu pulni bolaning qo‘lidan oladi. Buning uchun minglab qiziqarli takliflar do‘konini ochib qo‘yib, kutyapti. Bolaning pulini olib, “Kir. Nima xohlasang, olaver”. Faqat 2 soatda chiq”, deydi. Ota pulni bergan-u, nima olishni aytmagan. Nima xohlasang, shuni olaver”, degan.

Shuning uchun bolalar 2 soatdan so‘ng “pulsiz+natijasiz” chiqishyapti. Ko‘chaga chiqqach, o‘yin zavqi bir zumda tarqalib ketadi. Ota bergan besh ming so‘mdan olingan samara nolga teng bo‘ldi.

Internet oilani 5000:0 hisobiga yutdi.

Bu bankrotlikka ota-onaning pedagogik bilimlari kamligi sabab bo‘ldi. Chunki onasi bolasiga 5000 so‘m bergan. Lekin bu pul evaziga erishiladigan aniq maqsad, vazifani qo‘shib bermagan. Bolasining qaysi saytlarga kirayotganini so‘ramagan. Buning oqibatida bola nima duch kelsa, shunga kirib-chiqib yotibdi. Demak, internet muammosi bu bolalarning emas, kattalarning mediamadaniyati pastligi, pedagogik loqaydligining oqibati. Biz esa bolalarni, internetni tanqid qilamiz. Bundan ko‘ra bolalarimizdagi internetga “maqsadsiz-natijasiz” qiziqishni “maqsadli-natijali” qiziqishga aylantiraylik, olam guliston!

Bolalarimiz xulqi – oyina

Bu oyinada ota-ona qanday tarbiyachi ekanliklarini ko‘ramiz. Shuning uchun milliy tarbiyamizda “Otangga rahmat”, yoki “Padaringga la’nat”, degan munosabatlar ishlab chiqilgan. Bu ikki ibora ham baho. Otalarning pedagogik kompetentliligini ko‘rsatib turadi. Shuning uchun oyina uyaltirsa, ranjitsa, bolalarimizdan ranjimaylik. Chunki sabab – bizda. Ular – bizning pedagogik mahsulotimiz. Shunday ekan, bolalar xulqidagi kamchiliklarning sabablarini bilish, xuddi yutuqlarning sababini bilishdek foydali.

Asosiy sabab – pedagogik loqaydlik. Ya’ni o‘z bolasining tarbiyasiga e’tiborsizlik. Bolasi shamollasa, yelib-yugurib vrach maslahati, retsepti, dori-darmonlarini topib, davolaymiz. Biroq, xulq, ma’naviy kasallikni ko‘rsak ham yelib-yugurib, pedagog maslahati, tavsiyalari, metodlarini topib, davolashga shoshilmaymiz. Bolamiz bir ishkal chiqargandan so‘ng u bilan “gaplashib qo‘yamiz”. Qaytib bunday qilmasligini aytamiz.

Lekin sokin, erkin, dam olish paytlari bola bilan gaplashib o‘tirmaymiz. Qanday vaziyatda o‘zini qanday tutishni tushuntirmaymiz, o‘rgatmaymiz, va ko‘rsatmaymiz. Toqatimiz yetmaydi. “Katta bo‘lganingda bilib olarsan”, deb qo‘yamiz.

Tushuntirib, ko‘rsatib-o‘rgatish uchun atigi 10 minut vaqt yetadi. Lekin biz bundan erinib, bolamizga emas, televizorga qaraymiz. Vaholanki, mana shu 10 minut bolamizga juda-juda kerak edi.

Natijada bola sinfda, ko‘chada, hayotda qayta-qayta xatolarga yo‘l qo‘yadi, qancha dakkilarni eshitadi. Tarbiyani o‘z otasidan emas, boshqalardan olishga majbur bo‘ladi. Ota-onalar bobo-momolarimizning “Bolam, bolangga yaxshi amallar haqida 100 marta gapirganingdan ko‘ra 1 marta ko‘rsatganing yaxshi”, degan o‘gitiga amal qilsalar, bunday bo‘lmasdi.

Ba’zi otalar tarbiya haqida gap ochsangiz, “Ha endi, tirikchilik, ish ko‘p. Vaqt yo‘qdaaa”, deb qo‘yishadi esnab. Biz ularga quvonchli pedagogik yangilikni aytamiz: Siz boshqa ishlar bilan bandligingizda ham, uyda yo‘qligingizda ham tarbiyalay olasiz(!). Ha. Bolani tarbiyalash uchun unga tikilib turish shart emas. Tarbiyani(offlayn)bevosita va bilvosita(onlayn) amalga oshirish mumkin. Qanday qilib?!

Siz har bir kun davomida uyingizda bolalaringizga o‘zingizni o‘zingiz beixtiyor “taqdimot” qilasiz. Bolangiz ziyrak. Qiyofangizdagi har bir o‘zgarishni, ovozingizdagi har bir tovlanishni tuyadi. Ana o‘shanda siz uni o‘zingiz bilmagan holda beixtiyor tarbiyalayotgan bo‘lasiz. Bolangiz ana shu vaziyatlarni kuzatadi, ko‘zi bilan “tasvirga oladi”. Xulqiy xotirasiga “yuklab oladi”.

15 yoshli bola otasi bilan 5475 kun davomida birga yashagan bo‘ladi. U otasining qanday vaziyatlarda nima qilishini, qaysi so‘zni qanday aytishini takror-takror ko‘radi, eshitadi. U har kuni 2 marta ko‘rsa ham 10 950 marta ko‘rgan bo‘ladi.

U boshqalarning ham turli vaziyatlarda qanday xatti-harakat qilganini ko‘rgan. Lekin ota-onasi singari minglab marta emas-da. Shuning uchun ham go‘dak bolangiz o‘ziga-o‘zi gapirib, harakatlar qilayotganida sizga o‘xshashga mashq qilayotgan bo‘ladi. Diqqat bilan kuzatsangiz, bolangizdagi o‘zingizga yoki ayolingizga xos xatti-harakatlarni “tanib” olasiz.

Chunki quloq “Nima uchun”, desa, ko‘z: “Qanday qilib?”, deydi. Boshqacha qilib aytganda quloq “Ayt”, deydi, ko‘z esa “Ko‘rsat”, deydi. Afsuski, bu savollarga ba’zan salbiy namunalarni ham ko‘rsatamiz. Bunga sabab – o‘zimizdagi ayrim nuqsonlarda. Misol uchun ota bo‘lib, bolamizning ko‘z oldida chekamiz. Qo‘shni bir narsani so‘rab kelsa, bor narsani yo‘q deb aytinglar, deymiz. Bir kishini oldida maqtab, ortidan yomonlaymiz.

Hammasini bolamiz ko‘ryapti. Natijada, o‘zimiz bolamizga kashandalikni, qizg‘onchiqlikni, g‘iybatni “yuz marta eshittirgandan ko‘ra bir marta ko‘rsatib” boryapmiz. Bunday bo‘lmasligi kerak. Ota-ona bolasidan qanday xulqni istashsa, o‘zlari shu xulqni ko‘rsatib turishlari kerak. Qancha qiyin bo‘lsa ham...

Muhammadjon QURONOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor,
Jamoliddin FOZILOV,
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent